

Baxodirjonov Moxirbek Ilhomjon O'g'li

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti talabasi

Akayeva Marapat Abduhalikovna

Ilmiy rahbar : Namangan Davlat Universiteti

Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasini mudiri

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasida Sud hokimiyati fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda adolatlilik prinsipiga qay darajada amal qilishi. Sud organlarining faoliyati, ularning vazifalari hamda fuqarolarni qanday tartibda murojaat etishlari, fuqarolar tinchligi va totuvligi, qonun ustuvorligini ta'minlashga, inson huquqlari va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Sud tizimi, kodekslar, konstitutsiya, Oliy Sud, Plenum, demokratiya, adolat, insonparvarlik, yurisdiksiya sudlari, harbiy sudlar.*

РЕФОРМЫ СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ НОВОЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация:

В статье рассматривается, в какой степени судебная власть в Республике Узбекистан придерживается принципа справедливости при защите интересов граждан. Предоставляется информация о деятельности судебных органов, их задачах и порядке обращения граждан, обеспечении мира и согласия граждан, законности, защите прав и свобод человека, прав и законных интересов предприятий, учреждений и организаций.

Ключевые слова: *Судебная система, кодексы, конституция, Верховный суд, Пленум, демократия, правосудие, гуманитарное, юрисдикционные суды, военные суды.*

REFORMS IN THE JUDICIAL SYSTEM IN THE NEW REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: *In the article, the extent to which the Judiciary in the Republic of Uzbekistan adheres to the principle of justice in protecting the interests of citizens. Information is provided on the activities of judicial bodies, their tasks and the procedure for addressing citizens, ensuring peace and harmony of citizens, the rule of law, protecting human rights and freedoms, the rights and legal interests of enterprises, institutions and organizations.*

Key words: *Judicial system, codes, constitution, Supreme Court, Plenum, democracy, justice, humanitarian, courts of jurisdiction, military courts*

Kalit soʻzlar: *Sud tizimi, kodekslar, konstitutsiya, Oliy Sud, Plenum, demokratiya, adolat, insonparvarli, yurisdiksiya sudlari, harbiy sudlar.*

Adabiyotlar va metodlar

Maqolani tayyorlashda internet tarmogʻidagi xalqaro jurnal manbaalari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Binobarin, sud tizimi organlari xodimlariga quyidagilar kirishi mumkin: yuridik maʼlumot olgan odamlar, huquqshunoslar, huquq sohasidagi olimlar, ushbu sohada amaliyot mutaxasislari, sudyalari oliy maktabi bitiruvchilar. Huquqshunos mamlakatimizda qanday sohada faoliyat olib bormasin, yakunida inson bilan, uning muammolari va murojaatlari bilan ishlashiga, shularga toʻqnash kelishiga toʻgʻri keladi. Sudya ham, prokuror va advokat ham, notarial idora yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini rasmiylashtirish muassasasi hodimi ham, tergovchi yoki qamoqxona nazoratchisi ham yoki boshqa organ xodimlarining mijoz bevosida jonli odamlar, oʻzi singari insonlar boʻladi. Shuning uchun odamlar sud organlariga murojaat qilishar ekan, birortasining tashvishi, ular tushib qolgan holat boshqalarnikiga umuman oʻxshamaydi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy – huquqiy tahlil, statistic va amaliyot materiallarini oʻrganish kabi usullardan foydalanilgan.

Muhokama va natija:

Sizga maʼlumki Oʻzbekiston Respublikasining hokimiyatining tizimi – hokimiyatning **qonun chiqaruvchi**(Oliy Majlis), **ijro etuvchi** (Vazirlar Mahkamasi), hamda **sud hokimiyatlariga** boʻlinishi prinsipiga asoslanadi(1). Yaʼni sud hokimiyati davlat hokimiyatining bir boʻlagi hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish borasidagi keng koʻlamli islohotlar tizimida Oʻzbekiston Respublikasining sud hokimiyati uning huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning maʼsuliyati va mustaqilligini kuchaytirish markaziy oʻrin egallaydi. Oʻz oldiga demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib olgan mamlakatimizning rivojlanish jarayonida, barcha sohalar kabi sud – huquq sohasini isloh qilish hamda uni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etdi hamda u bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmadi. Shu asnoda mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq, sudlarni alohida mustaqil hokimiyat tarmogʻi sifatida vujudga keltirish uchun bir qator ishlarni amalga oshirdi. Zotan mamlakatimizning birinchi prezidenti **Islom Abdugʻanievich Karimov** oʻzining “Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli” nomli asarida “**Sud hokimiyati isloh qilinmoqda, u qonunlar ustunligini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini taʼminlashi lozim**”³ – deb mamlakatimizning dastlabki kunlaridanoq sud tizimiga jiddiy eʼtibor bera boshladi. Sudyalari mustaqilligini taʼminlashda 2001 – yil 22 – sentabrda hukumat qarori bilan

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Sud Qarorlari hamda boshqa organlar qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatdan va moliyaviy ta'minlash Departamentining tashkil etilishi ham Sud tizimining yanada ishchanlik muhitiga ta'sir ko'rsatdi. Sud hokimiyatining vujudga kelishi hamda uning shakllanishida bevosita 1993 – yil 6 – mayda qabul qilingan **“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”**²gi, hamda 1993 – yil 2 – sentabrda qabul qilingan **“Sudlar to'g'risida”**gi qonunlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero ushbu qonunlar tomonidan Sud hokimiyatining tashkil etilishi hamda uning faoliyatini tartibga solinishi mufassal tarzda yoritilgan.⁵

Sud hokimiyati deganda –O'zbekiston Respublikasida Sud O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilish vazifasini bajaruvchi organ hisoblanadi.⁴

Yangi O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasida mamlakat aholisi, ularning huquq va erkinliklari yana bir jabhada mustakhamlandi, zero ushbu yangi taxrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 55 – moddasida: «Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari hamda harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi¹» deb belgilangan.

Bu bir tomondan, sudlarga fuqarolar murojaatlarini ko'rish mas'uliyatini yuklasa, ikkinchi tomondan, sudni fuqaro huquqlari va erkinliklarining eng kuchli, samarali vositasi, kafolati sifatida namoyon qila olishini ko'rsatadi. Bu bilan sudlar fuqarolar huquqlarini davlatdan ham himoya qiladi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki, sudlar nafaqat qonunchilikni ta'minlaydi, ular qonun yaratishda, qonunchilik jarayonida ham faol qatnashadi.

2021-yil 28-iyulda yangi taxrirda O'RQ-703-son qonun bilan qabul qilingan **“Sudlar to'g'risida”**gi qonunda O'zbekiston Respublikasida odil sudlovi qonuniylik, sudyalarning mustaqilligi, sud hujjatlarining majburiyligi, qonun va sud oldidagi tenglik, sud ishlarini yuritishning oshkoraligi, sud ishlari yuritiladigan til va boshqa bir qator tamoyillar mustahkamlangan. Shuningdek, islohotlar jarayonida sudlar ixtisoslashuvi takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasida Oliy sud **fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy** hamda **ma'muriy** sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida bajarilishi majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasi ga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, rais o‘rinbosari etib saylanishi mumkin emas. Sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi joriy etilgani alohida e‘tirofga loyiq. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha imtihon jarayonlarini onlayn yoritib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni ko‘rib chiqish muqobillik asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi. Albatta, malakali va yetuk sudyalarni hamda sud apparati xodimlarini tayyorlashning yangi tizimi jamiyatda sud idoralariga bo‘lgan ishonchni oshirish, adolat barqarorligi va qonun ustuvorligini ta‘minlash hamda odil sudlovning yuqori darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish, ularning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa huquqlarini qonunchilikda yanada mustahkamlash, odil sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqligini ta‘minlash, o‘z navbatida, tegishli normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilish, mavjudlariga o‘zgartirish kiritish, shuningdek, ayrim qonunchilik hujjatlarini bekor qilishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovni faqatgina sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyatlardan siyosiy partiyalardan hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritishi bu ham fuqarolar manfaatlarini himoya qilinishi, sud hokimiyatining yanada adolatli bo‘lishiga zamin yaratadi⁷. Shuningdek, sud hokimiyatining faoliyati qonun bilan tartibga solinadi. Sud hokimiyati faoliyat jarayonida faqatgina qonunga bo‘ysunadi. O‘zbekiston mustaqilligi davlat hokimiyatining jahon tajribasida qo‘llab kelingan prinsiplarni amalga kiritish natijasida konstitutsiyada sudni totalitar tuzum, undagi hukmron partiya manfaatiga xizmat qiluvchi, huquqiy davlatning muhim vositasiga aylantirish uchun imkoniyat vujudga keldi, hamda Konstitutsiyada mustahkamlandi. Sud hokimiyatidan dastlab har qanday demokratik chiqish hamda harakatlarni jazolash sifatida foydalanilgan. Islohotlar doirasida olib borilgan ishlar natijasida sudlarning huquqiy asoslari takomillashda hamda bir qator qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

Hozirgi kunda sud huquq tizimini isloh qilish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Yangi taxrirdagi **Konstitutsiyamizning 98 – moddasiga** binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi hamda Konstitutsiyaviy Sudi qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligi yoritilgan. Ular Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonun loyihalarini kiritish, qonunlarga o‘zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish huquqiga ega¹.

Bugun mamlakatning sud tizimida gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning sud-huquq sohasidagi mavqegini oshirish, ayniqsa, ayol sudyalarni qo‘llab-quvvatlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yilda **149** ayol sudya faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich **157** tani tashkil etdi. 2021-yilning I-choragida

mamlakatda jami 1214 nafar sudyadan 1053 nafari erkak bo'lib, ayol sudyalari 161 ta, ya'ni 15,3% ni tashkil etdi. Shuningdek, bugunda oliy sudda faoliyat yuritib kelayotgan jami 63 sudyadan 15 nafari ayol sudyadir. Bu Oliy sud sudyalarining 31,25% ini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, uzoq yillar mamlakat uchun tamg'a bo'lib kelgan "Jasliq" jazoni ijro etish koloniyasi tugatildi. Ushbu muassasaning yopilishi mamlakat siyosiy hayoti va jahon hamjamiyati oldida juda katta voqea bo'ldi. Shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahkumlar sonining 2,5 barobarga kamayishi inson huquqlarini himoya qilish sohasida muhim qadamdir. Ushbu ishlar natijasida sud tizimini yanada isloh qilishga hamda sud huquq tizimida demokratlashtirish jarayonlarini bosqichma – bosqich amalga oshirish mumkin⁶.

Sud tizimi xodimlari uchun quyidagi odob – axloqiga oid tamoyillar bir necha xalqaro hujjatlarda belgilangan. Ushbu xalqaro hujjarlar namuna sifatida sud faoliyatidagi prinsiplarni mustaxkamlaydi:

- «Sudlov organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish» bo'yicha 1985 yildagi 7- kongressi, BMT Bosh Assemblyasining 40/32 va 40/146 – sonli rezolyutsiyalari bilan ma'qullangan. (Oliy Majlisning 1997 yil 30 avgustdagi 507-I sonli qarori bilan ma'qullangan);

- «Jinoyat qurbonlari uchun va hokimiyatni suiste'mol qilishga qarshi odil sudlovning asosiy tamoyillari to'g'risida» Deklaratsiya, BMT 40/34 Rezolusiyasi, 29.11.1985 yil;

- «Sudyalar odob-axloqiga oid Bangalor tamoyillari». 26.11. 2002y.

- «Osiyo mintaqasida sud hokimiyatini mustaqilligining tamoyillari», Pekin 19.08.1995 yil;

- «Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Sudyalik etikasi to'g'risida»gi Rezolyusiya 23.06.2008 yil;

- «Sudyalar mustaqilligi, samaradorligi va roli to'g'risida» Yevropa Kengshi vazirliklar qo'mitasining tavsiyalari. 13.10.1994 yil;

- «Sudyalar mavqeyi to'g'risida» Yevropa xartiyasi 10.07.1998 yil;

- «Sudyalar Buyuk Xartiyasi» 2010 yil

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki yuqorida bayon etilgan o'zgarishlarni inobatga olsak, huquqiy demokratik davlat qurish davrida olib borilayotgan sud huquq tizimidagi islohotlarda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Bugungi kun taraqqiyot shiddati har bir davlat va uning fuqarolaridan muntazam tarzda yangilik sari intilishni, yangi g'oyalar, tashabbuslar, kutilmagan yondashuvlar va yechimlarni talab etadi. Bu jarayondan qisqa muddat uzilib yoxud ortda qolish pirovardida sezilarli qoloqlikni, demakki, hamma sohada ilg'or davlatlarga qaramlikni keltirib chiqarishi tayin. Boshqa tomondan bugungi yurist shiddat bilan o'zgarayotgan zamon bilan ham nafas, uning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi darkor.

Prezidentimiz muhtaram Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Ayni paytda biz asosiy qonunimiz talablarini to'liq amalga oshirish borasida xali oldimizda ulkan vazifalar turganini yaxshi tushunamiz. Ya'ni, xalqimiz hayot darajasini hamda sifatini yanada yaxshilash, inson huquq va manfaatlarini amalda ta'minlash bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi “Adolat” 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi qonuni.2021
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 38-son, 433-modda)
4. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li – I.A.Karimov “O'zbekiston” 1992.
5. O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida”gi qonuni 28.07.2021
6. Konstitutsiyaviy huquq – O.T.Husanov “Yuridik adabiyotlar publish” 2020.
7. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2017 yil 7 fevral, PF-4947- son//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
8. “O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida”gi 2017 yil 6 apreldagi Qonuni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 214-modda
9. Chuboyeva Ozodaxon PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 – 226 p. 94-99
10. Chuboyeva Ozodaxon Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367. <https://zienjournals.com>
11. Chuboyeva Ozodaxon Quvonchbekovna . The importance of “Kazilik adabi” in Abu Bakr Kasani's work “ Badoi-us-sanoe”. International Scientific Journal ISJ Theoretical& Applied Science Philodelphia, USA issue 01, volume 81 published January 30, 2020
12. <http://www.infostrategy.uz>
13. Lex.UZ internet saxifasi.